


Amalga oshirilgan qurilish ishlari


2017 yilning yanvar - dekabr oylari bo'yicha Samarqand viloyatida 2351,1 mlrd so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 95,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 179,8 mlrd so'mlik yoki 132,2 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 foiz punktga oshdi.

Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini ko'payishi kuzatildi.

Shu jumladan, Samarqand shahrida, qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 68,7 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 116,1 foizni mos ravishda, Nurobod tumanida 49,9 mlrd. so'mni yoki 2,6 marta ortiq, Payariq tumanida 9,9 mlrd. so'm yoki 2,3 marta ortiq, Urgut tumanida 3,7 mlrd. so'm yoki 159,7 foizni tashkil etdi.






Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bjarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarining 42,5 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mikrofirmalar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rokonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha ob'yektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

2017- yilning yanvar-dekabr oylari uchun shahar, tumanlar kesimida qurilish ishlarining hajmiga nisbatan o'sish sur'ati

Mulkchilik shakllari

2017 yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining umumiyyatida shahar va tumanlarning ulushi



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2264,8 mld. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlarining hajmi 93,9 foizni tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 foiz punktga kamaydi.

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 86,3 mld. So'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlarining hajmi 6,1 foizni tashkil qildi.

